

## KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK IQTISODIYOTNING USTUNI SIFATIDA

Tadjibayeva Manzura Talgatovna

*Farg'ona viloyati Marg'ilon shahar 2- son kasb hunar maktabi Biznes asoslari fani oqituvchisi*

**Annotatsiya:** *O'zbekiston iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadi ochiq tashqi siyosatli, barqaror ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolar jamiyatini qurish hisoblanadi. Respublikada bozor qayta o'zgartirishlari qat'iy va izchil amalga oshirilmoqda. Shu sababli ham, Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu maqolada kichik biznes va tadbirkorlik tushunchasi, ushbu faoliyatiga yaratilayotgan imkoniyatlar, sohaning o'ziga xos xususiyatlari haqida mulohaza yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kichik biznes, tadbirkorlik, biznes, jamg'arma, iqtisod, islohot, qonun, tovar, xizmat, mulk, moliya, bozor.*

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini mustahkamlash, har tomonlama rivojlantirib borish, iqtisodiyotni xususan bozor munosabatiga o'tishni tezlashtiruvchi eng asosiy yo'llardan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Shuning uchun ham tadbirkorlikni rivojlantirishga, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish, uni rag'batlantirishga bag'ishlangan bir qancha qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy ijtimoiy islohotlarning tub negizini tadbirkorlik, omilkorlik va ishbilarmonlik xislatlarisiz tasavvur etish qiyin. Erkin bozor munosabatlarining keng ravnaq topishi kishilar hayotida, ularning turmush tarzida, ma'naviy va hayotiy ko'nikmalarida namoyon bo'lmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlanishi nafaqat iqtisodiyotni muttasil rivojlanishi, balki xo'jalik aloqalarini tuzatish, raqobatni rivojlantirish va iste'mol bozorini to'ldirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy maqsadlarni ham ta'minlamoqda.

Respublikamiz ijtimoiy iqtisodiy-rivojlanishi bozor munosabatlariga asoslangan bo'lib mulkchilik munosabatlarida shakllanmoqda. Ijtimoiy ishlab chiqarishda nodavlat sektorining ulushi ortib unda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tez suratlarda o'sib borishi kuzatilmoqda. Prezidentimiz tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda.

Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatining uch turi bo'lib, unga mos ravishda tadbirkorlarning ushbu guruhlarini alohida ko'rsatish mumkin:

1. Yangi tovar yoki xizmat loyihasini tashkil etish. Tadbirkorlikning bu turi bilan intellektual mulk egalari innovatsiya tadbirkorlari shug'ullanadi.

2. Tovar ishlab chiqarishni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar. Tadbirkor tovarni sotish, qayta sotish va tijorat ishlarini tashkil etish bilan shug'ullanadi.

Maqsad jihatidan tadbirkorlikning ikki turi bo'lib:

a) foyda olishni, iqtisodiy samaraga erishishni maqsad qiladi;

b) ijtimoiy samaraga (masalan, tabiat muhofazasi, yosh avlod tarbiyasi, sog'likni saqlash) erishishni maqsad qilib qo'yadigan turlarini ko'rsatish mumkin. Tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib ular quyidagilardan iborat: shug'ullanayotgan soha bo'yicha ilm, bilim saviyaga egaligi; tavakkalchilikka asoslangan qarorlar qabul qilish bo'yicha tashabbuskorlik qobiliyati;

iqtisodiy jarayonlarda chuqur fikrlay olish;

qonunlardan samarali foydalanish;

innovatsiyalarni amaliyotda qo'llash;

maqsad sari intilish;

tashkilotchilik;

tejamkorli bo'lish, o'z so'zining ustidan chiqish;

ruhiy pok va halol;

jamoasi uchun fidoyi kurashuvchan bo'lishi kerak.

Tadbirkorlik faoliyatini yuritishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik biznes yo'li bilan amalga oshiriladi. «Biznes» so'zi inglizcha so'z bo'lib, tadbirkorlik faoliyati yoki kishilarning foyda olishga qaratilgan faoliyatidir. Bozor iqtisodiyoti subyektlarining xo'jalik faoliyatida «tadbirkorlik» va «biznes» tushunchalari o'zaro yaqin bo'lib, amaliyotda ular bir-birini almashtirishlari mumkin. Rus adabiy tili lug'atida «biznesmen» so'zi go'yoki tadbirkor, ishchan deb yuritilsa, «biznes» bu-faoliyat, foyda keltiruvchi mashg'ulot deb tushuniladi. «Tadbirkor» va «biznesmen» kabi tushunchalarda ishlab chiqarish, dallolchilik, savdo, moliyaviy va innovatsiya faoliyatlari bilan shug'ullanuvchi va daromad olish niyatidagi inson ifodalanadi.

Bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida davlatimiz tomonidan kafillik va kompensatsiya shaklida moliyaviy yordamlar berib kelinmoqda. Birgina 2020-yil davomida

20 258 ta kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining tijorat banklaridan olingan 33 208 mlrd. so'mlik kreditlari bo'yicha Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan 6 993 mlrd. so'm miqdoridagi moliyaviy majburiyatlar olingan. O'z navbatida, tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, 2020-yilda: tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar bo'yicha 5356 ta kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga jamg'armaning 4 172 mlrd. so'm miqdordagi kafillik majburiyatlari olingan, natijada jamg'armaning kafilligidan foydalanuvchi kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari soni 2019-yilga nisbatan 4,2 barobarga oshgan; tijorat banklari kreditlari bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun jamg'armaning kompensatsiya berish shaklida moliyaviy yordamidan foydalangan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari soni esa 14 902 ta yetgan va Jamg'arma 2,821 mlrd. so'm miqdorda foiz xarajatlari qoplash yuzasidan majburiyatlar olgan, natijada 2019-yilga nisbatan kompensatsiya oluvchilar soni 4,4 barobar hamda to'lab beriladigan foiz xarajatlari miqdori 3,3 barobarga oshgan.

Bundan tashqari koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish davrida aholini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyat ko'rsatishining barqarorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi PF-5969, PF-5978, PF-5986, PF-5996-sonli farmonlariga muvofiq Jamg'arma tomonidan 6

mingga yaqin kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining kreditlari bo'yicha moliyaviy yordam ko'rsatildi.

Mamlakatimizda kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni yanada barqaror qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PF-5780-son farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarorlari qabul qilingan.

Qabul qilingan qarorlar va berilayotgan imtiyozlar natijasida O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalari majmuini tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda. Kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar davlatga bog'liq bo'lmagan holda, ya'ni katta kapital mablag'larsiz o'zlari ish joylarini joriy etishlari, vaqtinchalik mavjud bo'lgan tovarlar tanqisligini kamaytirishlari va hattoki, bu tanqislikni butunlay yo'qotishlari mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ya'ni mahsulot yetishtirish, xizmat ko'rsatishda yangi texnika, texnologiya, fan yutuqlarini joriy etish, iqtisodiy o'zgarishlar qilish muhimdir. Respublikamiz iqtisodiyotida kichik biznes hal qiluvchi tarmoqlardan bo'lganligi uchun bu sohani rivojlantirish ustivor yo'nalishlardan biri sifatida belgilaydi. Shu sababli hukumat tomonidan kredit bilan ta'minlash yuzasidan imtiyoziy huquqiy baza yaratishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bugungi kunda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so'zlari bilan aytganda, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari bazasi.
2. Egamberdiev E., Xujakulov X. Kichik biznes va tadbirkorlik, T.: 2003
3. Xodiev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: 2010
4. Toshboev A.J. Kichik biznesni boshqarish. T.,2011.